

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYE‘KTLARINING BANKROTLIK RISKLARINI KAMAYTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Umarova Hulkar Umidulloevna
Osiyo Xalqaro Universiteti o‘qituvchisi

Annotasiya. *Mazkur tezisda zamonaviy iqtisodiyotning asosi hisoblangan kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bankrotlik holatlarining oldini olish masalalari tadqiq etilgan. Milliy iqtisodiyotning tarkibi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarida to‘lov qobiliyatini tiklash, kredit yukini optimallashtirish va kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kichik biznes, bankrotlik riski, moliyaviy barqarorlik, to‘lov qobiliyati, inqirozga qarshi boshqaruv, investitsiya muhiti, O‘zbekiston iqtisodiyoti.*

Kirish. O‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotida korxonalarining bankrotlik risklarini muvofiqlashtirilgan modellarini ishlab chiqish – bu murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning maqsadi korxonalarining moliyaviy barqarorligini saqlash va risklarni samarali boshqarishdan iborat .

Chunki tadbirkorlarimiz xalqaro munosabatlarda raqobatbardosh sub’ekt sifatida o‘zini namoyon etib, iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo‘shishidan barchamiz birdek manfaatdormiz. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bizning muhim vazifamiz kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Asosiy qism.

O‘zbekistonda iqtisodiy nochor korxonalariga nisbatan bankrotlik taomillarini qo‘llashda yangicha amaliyot joriy etildi . 1999 yilda qabul qilingan “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonun o‘rniga yangi tahrirdagi “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Qonun mazmunan kengaytirilib, “bankrotlik” atamasi umumjahon tajribasi talablariga muvofiq “to‘lovga qobiliyatsizlik” atamasi bilan almashtirilmoqda. .O‘zbekistonda 2021 yildan iqtisodiy nosog‘lom holga tushib qolgan korxonalar, tadbirkorlik sub'yektlarini bankrot deb e‘lon qilishda yangi qoidalar joriy qilindi.

Korxonalarining bankrotlik riskini yanada samarali baholash va boshqarish uchun quyidagi keng qamrovli yondashuvlar tavsiya etiladi:

1. Xolis va muntazam moliyaviy tahlil:

- Har tomonlama moliyaviy tahlil: korxonaning moliyaviy holatini muntazam ravishda xolisona tahlil qilish orqali likvidlik, qarz majburiyatlari va foydalilik kabi ko'rsatkichlarni baholash.

- Trend tahlili: moliyaviy ko'rsatkichlarning tarixi va trendlarini tahlil qilish orqali muammolarni erta aniqlash.

2. Iqtisodiy modellashtirish va prognozlar:

- Iqtisodiy strategiyalar: turli iqtisodiy vaziyatlarni modellashtirish va ularning ta'sirini baholash. Bu orqali korxonaga turli strategiyalarga tayyorgarlik ko'radi.

- Prognozlash usullari: sun'iy intellekt va neyron tarmoqlardan foydalangan holda bankrotlik ehtimolini aniq prognozlash.

3. Moliyaviy diversifikatsiya:

- Daromad manbalarini kengaytirish: faqat bir bozor yoki mahsulotga bog'liqlikdan qochish. Turli mahsulotlar va xizmatlar orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilish.

- Investitsiya portfeli: xavflarni bo'lishish maqsadida turli investitsiyalarning muvozanatini ta'minlash.

4. Likvidlik va aylanma mablag'larni boshqarish:

- Aylanma mablag'larning samarali boshqarilishi: aktivlarni tezda likvidlashtirish imkoniyatiga ega bo'lish.

- Qisqa muddatli moliyaviy rezervlar: tezkor xarajatlarni qoplash va moliyaviy qiyinchiliklarni engib o'tish uchun rezerv mablag'larni saqlash.

5. Qarz tuzilishini nazorat qilish:

- Qarz kapitalining samaradorligi: qarzdand foydalanish va uning miqdorini nazorat qilish. Foiz to'lovlarini to'g'ri boshqarish orqali moliyaviy bosimni kamaytirish.

- Qarzlarni qayta tuzilishi: yuqori xavfli qarzlarni qayta ko'rib chiqish yoki tuzilishini qayta tashkil qilish.

6. Maxsus risk boshqaruvi guruhi:

- Ekspert jamoa: risklarni muntazam kuzatib borish va tahlil qilish uchun malakali mutaxassislar jamoasini tashkil etish.

- Moliyaviy inqirozlar ehtimolariga tayyorgarlik: ehtimoliy moliyaviy krizislarga qarshi chora-tadbirlar rejasini tayyorlash va joriy etish.

7. Biznes jarayonlarini optimallashtirish:

- Ishlab chiqarish jarayonlarini qayta ko'rib chiqish: xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

- Tashkilot tuzilmasini yaxshilash: uskunalarni va kadrlar samaradorligini oshirish uchun tashkilot tuzilmasini optimallashtirish.

Xulosa va takliflar.

Xulosa shuki, bankrotlik xavfini kamaytirish uchun birinchi navbatda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish va likvidlik darajasini yuqori saqlash zarur.

Korxonalariga samarali moliyaviy rejalashtirish tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi, bu esa ularning kelajakdagi xarajat va daromadlarini aniq prognoz qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, qarz yukini nazorat qilish va moliyaviy qarzlarning optimal darajasini saqlash, korxonalarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Prognozlar nuqtai nazaridan, agar O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni davom ettirsa va korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari kengaytirsa, kelgusi yillarda bankrotlik xavfini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikka erishish ehtimoli yuqori. Bunday yondashuv nafaqat korxonalarining, balki umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. www.prezident.uz

2. O'zbekiston Respublikasining 21.02.2024 yildagi O'RQ-911-sonli "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni.

3. Артамонова, Н. А. Методы оценки предпринимательских рисков / Н. А. Артамонова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — 4. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 www.openscience.uz 1651 :Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari

5. H.Umarova. "Rivojlangan mamlakatlarda korxonalar risklarini boshqarish va baholash amaliyoti tahlili" International scientific and practical conference may,2025y

6.H.Umarova ."Korxonalar bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2024y